



## “YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

### O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI Karimov Ozodbek

*Andijon davlat universiteti ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti MG'MAHT yo'nalishi talabasi*

#### INFO:

Qabul qilindi: 22.02.2022  
Ko'rib chiqildi: 22.02.2022  
Chop etildi: 23.02.2022

*Kalit so'zlar:* korrupsiya,  
korrupsiyaga qarshi kurash

#### ANNOTATSIYA

Oddiy xalq orasida korrupsiya deganda ko'pincha davlat amaldorlarining shaxsiy boylik orttirish hamda davlat, jumladan xalq manfaatlari va resuslariga ziyon yetkazish maqsadidagi poraxo'rliigi tushuniladi. Gap xususiy soha to'g'risida ketayotgan bo'lsa, unda odatda yirik ko'lamdagi poraxo'rlik yoki xususiy korxonada mulkini taon-taroj qilish nazarda tutiladi.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan

Aslini olganda korrupsiya tushunchasi anchayin keng bo'lib quyi tabaqadan to yuqori tabaqacha bo'lgan aholining deyarli barcha ijtimoiy qatlamlari, nafaqat davlat, balki xususiy sohalarni ham qamrab oldi.

Bugungi kunda yurtimizda korrupsiya “Mahalliychilik” “Urug'-aymoqchilik”, poraxo'rlik kabi illatlarga qarshi kurashlar tobora dolzarb masala ekanligi takror va takror qatd etilmoqda darhaqiqat jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligi, axolining yaxshi turmush sharoitida hayot kechirishni ta'minlashda korrupsiya illatlariga qarshi kurashishda Davlat xojalik boshqaruvi organlarining eng muhim hamda ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy ongi va huquqiy madaniyati oshirildi. Aholini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'natirilgan tizimli chora tadbirlar ko'rildi. Islohotlarni amalga oshirishda fuqarolrning huquq va manfaatlari himoya qilinishi davlat va hokimyat

boshqaruv organlari faoliyati ochiqligini jamiyat va parlament nazortini ta'minlash mexanizmlari takomillashtiriladi. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilinadi.

Shu bilan birga iqtisodiyotni yanada o'zlashtirish, xalq farovonligi oshirish mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash borasida strategik vazifalarni hal etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishning sabab va shart –sharoitlarini bartaraf etish kerak.

Mazkur tushunchaga aynan nima kiradi .2003 yilda qabul qilinganva 2008 yilda O'zbekiston qo'hilgan Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasida keltirilgan ta'rifga ko'ra, korrupsiya davlat amaldoriga shaxsan yoki boshqa shaxslar orqali lavozim majburiyatlari doirasida qandaydir harakat yoki harakatsizligini amalga oshirish uchun mansabdor va boshqa shaxs uchun g'ayriqonuniy bo'lgan laozim majburiyatlariga ega xususiy shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Aslini olganda, gap qaysi rivojlanayotgan yoki rivojlangan davlat bo'lmasi u turlicha ifodalanadi.

G'arb mamlakatlarda, masalan Fransiya tibbiyot va ta'lim sohasida korrupsiya deyarli mavjud emas. Bu Fransiyada tibbiy xizmat asosan xususiy sektorda taqdim etilishi bilan bog'liq, yani tibbiyot xodimini moliyaviy jihatdan rag'bartlanish zaruriyatga hojat qolmaydi. Chunki bemor rasman uning xizmati uchun gonarar to'lanadi. Bunda faqat tibbiy xodimlar uchun emas barcha sohalar uchun ham to'lanadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish uning sifati hamda samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash borasida. keng ko'lamli samarali ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda, Oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonlari shaffofligini ta'minlash, ta'limdagi korrupsiya va poraxo'rlikni oldini olishga ham astoydil kirishilgan .

Lekin korrupsiyaga qarshi kurashda tobora qa'tiy bo'lib ish olib borishiga qaramay , ajriq kabi uning ildizlari hali hanuz saqlanib kelinmoqda . Astoydil ta'lim olib , ne-ne orzular bilan o'qishga topshirgan yoshlar manfaatni hatlab o'tib , harom luqma bilan kun kechirishi o'ziga odat qilib olgan nopok insonlar ham uchrab turgani jamiyatimizdagi sog'lom muhitda salbiy ta'sir qilmoqda .

Afsuski jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda.

Bu yomon illatni oldini olmasak haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitni yaratib bo'lmaydi, umuman jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi.

O'zbekistonda davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilishga kirishildi. Kapital qurilish va oily ta'lim sohalarida “Korrupsiya soha” loyihasi amalga oshiriladi. Prezident korrupsiyaga qarshi kurash dasturini tasdiqladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-may kuni O'zbekistonda korrupsiyaga qarshikurashish tiziminiyanada takomillashtirish to'g'risidagi farmoni imzoladi.

Hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulot ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirishga qaratilgan. So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexnizmalrini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Budjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish qadastir, qurulish, litsenziya, bojxona bank, davlat haridlari kabi sohalarida qorrupsiyaga duj kelayotganligini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko'plab murojatlar ham

matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda aholini barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan. Jamiyatni barcha a'zolari, tabir joizki bo'lsa 'HALOLLIK VAKSINASI' bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak.

Ana shu vazifalar ijrosini tizimli tashkil etish maqsadida mamlakat parlamentiga va prezident xisob beradigan. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ma'sul bo'ladigan alohida organ tashkil etishni taklif etaman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mulaydinov, F. (2021). Digital Economy Is A Guarantee Of Government And Society Development. *Ilkogretim Online*, 20(3), 1474-1479.
2. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *Форум молодых ученых*, (3), 35-43.
3. Farkhod, M. (2020). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02).